

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'l yozma huquqida
UDK 420-413.22

OCHILOVA ZARIFA ZAFAR QIZI

**Hozirgi zamon ingliz tilida onomatopoik so'zlarning sintaktik,
sintaktik-semantik xususiyatlari**

5A120102-Lingvistika (ingliz tili)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya

Ilmiy rahbar :

Filologiya fanlari nomzodi, dots. S. Egamberdiyev
--

**Filologiya fanlari nomzodi,
A.A.Aliqulov**

Qarshi-2017

Mundarija:

Kirish	4
I bob Hozirgi zamon ingliz tilida onomatopoik so'zlarni o'rganishning nazariy asoslari	9
1.1 Onomatopoik so'zlar olimlar nigohida	11
1.2 Onomatopoik so'zlarning qiyosiy tahlili.....	17
1.3 Onomatopoik so'zlarning morfologiyada tutgan o'rni	21
1.4 Onomatopoik so'zlarni o'rganishning tahlil metodlari.....	32
<i>I Bob bo'yicha xulosa</i>	38

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng fan va ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilishi tadqiqotchilar oldiga tilshunoslikning nazariy va amaliy sohalarida mas'uliyatli vazifalarni qo'ydi.

Bunday vazifalardan biri chet tillarni o'rganish va o'rgatishdir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ta'biri bilan aytganda "Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarning mukammal bilishning ahamiyatini baholashning xojati yo'qdir".¹

Tilni ko'plab ijtimoiy fanlar singari fanga tadqiq etishga urindilar. Jumladan sotsiologiya, psixologiya, falsafa singari fanlar tilni o'z nuqtai nazarlari yordamida talqin qildilar. Til sohasida juda ko'p ilmiy adabiyotlar chop qilindi, hamda ularning mazmuni tilning talqini va til tarkibiga kiruvchi unsurlarning nutqda namoyon bo'lishi holatlarini ochib berishga qaratilgan.

Tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri tilda uchraydigan hodisalar va til birliklarining o'zaro munosabatini o'rganishdan iborat.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi zamon ingliz tili gaplarida onomatopik so'zlarni keng qamrovda o'rganish, ularni gapda qanday sintaktik munosabatlar orqali aloqaga kirishi va qanday semantikalarini ifodalay olishi mumkinligini aniqlash bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ingliz tili grammatikasida onomatopik so'zlardan keng miqyosda foydalaniladi. Mazkur olib borilgan tadqiqotlarda hozirgi zamon ingliz tili gaplarida onomatopik so'zlarning, sintaktik, sintaktik – semantik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Onomatopik so'zlar to'g'risida hozirga qadar bunday tadqiqotlar olib borilmagan. Shuning uchun ham onomatopik so'zlarni gapda qanday bog'lanishlar asosida muomalaga kirishi, qanday sintaktik-semantikalarini ifodalashi muhim ahamiyat kasb etadi. Onomatopik so'zlar

¹ I.A.Karimov Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, Toshkent, 1998, -86b.

borasida tadqiq etilgan ishlar o`zbek tilshunosligida ham kam miqdorni tashkil etadi. Uni o`zbek tilshunosligida batafsil talqin etish muammoni yanada yoritilishiga asos bo`ladi. Shu bois bu mavzu o`ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning obykti va predmeti. Tadqiqot ishi tilshunoslik tadqiq etishi lozim bo`lgan onomatopoik so`zlarning sintaktik- semantik tahlilini o`rganar ekan, bunda onomatopoik so`zlar, onomatopoik birikmalar obyekt sifatida olinadi.

Onomatopoik so`zlarni atroflicha o`rganish ularning sintaktik - semantikasini o`rganish jarayonida katta rol o`ynaydi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqot ishi onomatopoik so`zlarning sintaktik-semantik tahlilini yoritib berishni, onomatopoik so`zlar gapda qanday bog`lanishlar asosida muomalaga kirishini ko`rsatib berishni, qolaversa ularning gapdagi boshqa komponentlarga munosabatini, hamda qanday turdagi sintaktik-semantiklarni ifodalashi mumkin ekanligini ko`rib chiqishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi. Bu maqsadni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi bir necha vazifalarni o`z ichiga oladi. Bunday vazifalar quyidagilardan iborat:

- hozirgi zamon ingliz tili strukturasi onomatopoik so`zlarning o`zaro sintaktik aloqadorlikni topish;
- sintaktik bog`lanishlar aniqlangach gapda qanday komponent bo`lib kelishini aniqlash;
- onomatopoik so`zlarning birikib kelish imkoniyatlarini va o`zining tayanch so`ziga nisbatan gapdagi o`rnini aniqlash;
- o`tkazilgan lingvistik eksperiment transformatsiyalar orqali tahlil qilinayotgan onomatopoik so`zlarning semantikalarini ko`rsatib berish va hokazolar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqot ishimizda onomatopoik so`zlarning sintaktik – semantik tahlilini o`rganishda asliy badiiy adabiyotlardan olingan misollar asosida yoritib beriladi.

- Sintaktik munosabatlarni tavsiflashda onomatopoiik soʻzlarga obyekt sifatida qarab, ularning yadroviy predikativ, subordinativ, koordinativ munosabatlarni ifodalay olishi, shu bilan birga ularning protsessual, substansial, kvalifikativ semantikalarini ifodalashi aniqlandi.

- Onomatopoiik soʻzlarning leksik-semantik guruhlari tuzildi.

- Onomatopoiik soʻzlarni sintaktik-semantik xususiyatlarini oʻrganishga jahon tilshunosligida yangi yoʻnalishlardan boʻlgan kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan yondashildi.

- Onomatopoiik soʻzlarning semantikasi va qoʻllanishining turli koʻrinishlari aniqlandi.

- Onomatopoiik soʻzlarning turli til sathlarida ifodalanishi va faollik darajalari aniqlandi.

- Tadqiq etilgan onomatopoiik soʻzlarning struktur xususiyatlari va modellari koʻrib chiqildi.

Tadqiqot mavzusi boʻyicha adabiyotlar sharhi (tahlili): Oʻzbekiston Respublikasi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, Oʻzbekiston Respublikasi hukumatining oliy taʼlimni rivojlantirishga qaratilgan qarorlari, Xalq taʼlimi Vazirligining buyruqlari, birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning taʼlim tizimini takomillashtirishga yoʻnaltirilgan nutqlari, unda bayon etilgan yondashuvlari, tadqiqot muammosiga oid ilmiy-metodik pedagogik adabiyotlarga tayanilgan. Xorijiy mashhur tilshunoslar N.A.Gaman, A.I.Smirnitskiy, O.V.Dolgova N.D.Artyunova, L.S.Barxudarov, I.I.Meshchaninov, V.V.Vinogradov, O.Esperson, I.R.Galperin, V.G.Gak, A.M. Muxin, O.S.Axmanova, N.N.Amosova, A.A.Potebnya va boshqa olimlarning asarlari lingvistik metodologik asos sifatida foydalaniladi.

Tadqiqot ishi tilshunos olim prof. A. M. Muxin tomonidan ishlab chiqilgan komponent va sintaksem tahlil nazariyasiga asoslanib yoritilgan.

Tadqiqotda qoʻllanilgan metodikaning tavsifi: Tadqiqot ishini yoritishda qiyosiy-distributiv, komponent va sintaksem tahlil hamda transformatsion tahlil metodi va uning quyidagi usullaridan foydalanildi:

- tushirib qoldirish transformatsiyasi ;
- o`rniga qo`yish;
- verballashtirish;
- passivlashtirish;
- so`roq berish.

Tadqiqot ishining nazariy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, mazkur tadqiqot ishning natija va xulosalari leksika, morfologiya, sintaksis kabi fan sohalarining nazariyalarini boyitadi va kognitiv tilshunoslik kabi yangi lingvistik yo`nalishlar nazariyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek onomatopoik so`zlar haqidagi nisbiy bilimlarimizni yanada kengaytiradi.

Tadqiqot ishimizda onomatopoik so`zlarning sintaktik – semantik tahlili o`zbek va ingliz tillaridagi misollar asosida yoritib beriladi. Gap strukturasi onomatopoik so`zlarning muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda, tadqiqotni yoritib berishda asliy badiiy ingliz adabiyotlaridan olingan misollardan keng miqyosda foydalanildi. Ingliz tilidagi badiiy adabiyotlardan keltirilgan misollar yuqoridagi fikrlarimizni isbotlashda asosiy vosita bo`lib xizmat qildi. Shuningdek, komponent va sintaksem tahlil nazariyasiga oid ilmiy metodik tavsiyalar bilan boyitildi. Qo`llanilgan nazariy asoslar til o`rganishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek onomatopoik so`zlarga yoki onomatopoik birikmalarga oid keltirilgan materiallardan ingliz tili grammatikasini o`rganishda keng foydalanish mumkin .

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya Kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yhatini o`z ichiga oladi. Kirish qismida mavzu haqida qisqacha ma`lumot beriladi. Mavzuning to`liq tafsiloti asosiy qismda berib o`tiladi. Asosiy qism uch bobdan iborat bo`lib, birinchi bobda onomatopoik so`zlarning olimlar tomonidan o`rganilganligi, onomatopoik so`zlarni tahlil qilishning o`ziga xos jihatlari, onomatopoik so`zlarning morfologiyada tutgan o`rni, onomatopoik so`zlarni o`rganishning tahlil metodlari haqida so`z yuritilgan. Ikkinchi bob hozirgi zamon ingliz tilidagi onomatopoik so`zlarning sintaktik bog`lanish turlariga

bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda onomatopoik so'zlarning yadroviy predikativ, subordinativ, koordinativ hamda introduktiv bog'lanishlar asosida aloqaga kirishi haqida fikr yuritiladi. Uchinchi bobda onomatopoik so'zlarning semantik tahlili haqida ma'lumot berib o'tiladi. Ushbu bobda tarkibida onomatopoik so'zlarning bir qancha semantikani ifodalashi mumkin ekanligi ochib beriladi, jumladan, protsessual, protsessual aktiv, protsessual stativ, protsessual obyekt, substansial, substansial obyekt, kvalifikativ, kvalifikativ kontinuativ va boshqalar. Dissertatsiya xulosa bilan yakunlanadi va shu bilan birga foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar ro'yhati hamda ilovalarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Ilmiy tadqiqot ishi yuzasidan 2015-2016, 2016-2017 - o'quv yillarida 5 ta ilmiy maqola va tezislar chop etildi. Mazkur maqolalar tadqiqot ishidan namuna sifatida ko'rsatiladi. Dastlabki maqola *“Hozirgi zamon ingliz tilida onomatopoik so'zlaning sintaktik tahlili”* deb nomlanib, unda onomatopoik so'zlarning sintaktik bog'lanishlari haqida so'z yuritiladi. Ikkinchi maqola *“Hozirgi zamon ingliz tili taraqqiyotida onomatopoik so'zlarning tutgan o'rni”* deb nomlanib, unda onomatopoik so'zlarni tilning paydo bo'lishidagi ahamiyati, hozirgi zamon ingliz tilida ularning tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi. Uchinchi maqola *“Ingliz tili darslarida onomatopoik so'zlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari”* deb nomlanib, unda onomatopoik so'zlarni ingliz tili darslarida qo'llashning ahamiyati haqida aytib o'tiladi. To'rtinchi maqola *“Onomatopoeic words in modern English”* deb nomlanib unda hozirgi zamon ingliz tilida onomatopoik so'zlar haqida so'z yuritiladi. Beshinchi maqola *“Onomatopoik so'zlar ishtirokidagi birikmalarning subordinativ bog'lanishlari”* deb nomlanib unda onomatopoik so'zlarning subordinativ bog'lanishlari haqida fikr yuritiladi.

I bob Hozirgi zamon ingliz tilida onomatopoik so'zlarni o'rganishning nazariy asoslari

Onomatopoik (taqlid) so'zlar - ma'no va shakliy xususiyatlariga ko'ra, so'z turkumlari sirasida alohida har xil sintaktik-semantik guruhni tashkil qiluvchi, kishilar, hayvonlar va boshqa jonli, jonsiz narsalarning tovushini, harakat-holat obrazini taqlid orqali ifodalovchi so'zlardir. Taqlid so'zlarning ba'zilari tovushga taqlidni bildiradi, ba'zilari esa harakat-holat va hodisa obraziga taqlidni ifodalaydi. Shunga ko'ra taqlid so'zlarning turlari farqlanadi: tovushga taqlidni bildiradigan so'zlar (shuningdek *onomatopeya* deb ham nomlanadi); obraz (tasvir)ga taqlidni bildiradigan so'zlar. Tovushga taqlid so'zlar eshitish bilan, obrazga taqlid so'zlar ko'rish bilan aloqadordir.

Hozirgi kunda onomatopoik so'zlarga mustaqil so'z turkumi doirasida qaralmoqda. Bu davrga kelib so'zlarni mustaqil so'z turkumi, yordamchi so'z turkumi va alohida so'z turkumi tarzida tasniflash amalga oshirildi. Bu talqin XX asr boshlarida ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Bunda taqlidga munosabat ham o'ziga xos. Bugungi kunda taqlidning mustaqil so'zlik xususiyatini jiddiy ilmiy asoslash lozim. Taqliddan ot va fe'l kabi so'zning yangi bir qismini yasash mumkin. Shuningdek, u ba'zan otlashganda, ba'zan otlashmay turib ham gap bo'lagi vazifasida kela oladi. Biroq anashuning o'zigina uni mustaqil so'zlar qatoriga qo'llash uchun hali etarli emasga o'xshaydi. Taqlid so'zlar leksik va formal xususiyatlariga ko'ra alohida mustaqil gruppani tashkil qiladi. Bu gruppaga kiruvchi so'zlar his-hayajon, tuyg'u yoki buyruq-xitobni ifodalamaydi. Ular atrofdagi o'rab turgan muhitda (odam, hayvon, qush, jonsiz predmetlarda) uchraydigan ovoz (tovush)larni qayta tiklab, tovush obrazi sifatida, predmetlar harakati tasvirini esa harakat obrazi sifatida ifodalaydi. Taqlid so'zlar gapda, asosan hol va aniqlovchi bo'lib kela olishi sababli keyingi paytlarda ularni mustaqil so'z turkumiga ham qo'shib kelayotganini ko'ramiz. Tabiatda insondan tashqari juda ko'plab tirik jonzodlar yashaydi. Ularda ham o'ziga xos nutq aparati

mavjud. Mana shu nutq aparati yordamida ular turli tuman ovoz chiqaradi. Masalan, itlarning vovullashi, mushuklarning miyovlashi, tovuqning qoqoqlashi, qo'y-echkinining marashi, otning kishnashi, eshakning hangirashi hech birimizga yod emas.

Bundan tashqari tevarak atrofimizda beadat voqea va hodisalar sodir bo'lib turadi: narsalar bir biriga tegadi, uruladi. Natijada har xil ovozlar xosil bo'ladi. Inson o'z faoliyati davomida mana shu ovozlarga taqlid so'zlar atamasi bilan yuritiladi.

Onomatopoik so'zlar bu o'zlarining ma'nolaridan kelib chiqib namoyon bo'ladigan so'zlardir. Onomatopoik so'zlar tushunchasini misollarsiz tushunishda qiyinchiliklar tug'iladi. Misollar onomatopoik so'zlar tushunchasini tushunishni osonlashtiradi. Onomatopoik so'zlarning hosil bo'lishiga ko'ra quyidagi leksik-semantik guruhlarga (LSG) bo'lish mumkin.

1. Suyuqliklar bilan bog'liq bo'lgan onomatopoik so'zlar: *bloop, splash, spray, sprinkle, squirt, drip, drizzle*

2. Tovushlar bilan bog'liq bo'lgan onomatopoik so'zlar: *giggle, growl, grunt, gurgle, mumble, murmur, bawl, belch, chatter, blurt*

3. To'qnashuv bilan bog'liq bo'lgan onomatopoik so'zlar: *bam, bang, clang, clank, clap, clatter, click, clink, ding, jingle, screech, slap, thud, thump*

4. Havo oqimi bilan bog'liq bo'lgan onomatopoik so'zlar: *flutter, fisst, fwoosh, gasp, swish, swoosh, whiff, whoosh, whizz, whip, whisper*

5. Hayvon tovushlari bilan bog'liq bo'lgan onomatopoik so'zlar: *arf, baa, bark, buzz, cheep, chirp, cluck, cock-a-doodle-doo, cuckoo, hiss, meow, moo*

Onomatopoik so'zlarning leksik-semantik guruhlari haqida keyingi bo'limlarda to'xtalib o'tamiz.

1.1 Onomatopoik so'zlar olimlar nigohida

Tovushga taqlid masalasi bizning eramizdan ilgariyoq tilshunos olimlarning diqqatini o'ziga jalb etgan: biz tovushga onomatopoik haqidagi ilk fikrlarni o'sha davrlarda aytilganligini ko'ramiz. Ma'lumki, tabiatdagi jonli va jonsiz predmetlar turli xil tovushlar chiqaradi. Kishilar o'z turmush tajribalarida ba'zan ana shunday tovushlarga taqlid qiladilar. Tovushni qabul qiluvchi organimiz quloq tabiatdagi tovushlarni asosan to'g'ri aks ettiradi. Ammo biz talaffuz qilgan tovush o'sha tovushlarga ancha yaqinlashib boradi va u shartli ravishda taqlid deb olinadi. Yozma nutqda esa onomatopoik so'zni berish yana ham qiyinroq, chunki İhar qanday eng yaxshi alifbo, hatto, lingvistlar tomonidan yaratilgan transkripsiyalar ham kishi nutqini, ayniqsa, undagi onomatopoik so'zlarni to'liq aks ettira olmaydi. Onomatopoik so'zlarni imitatsiyadan farqlash kerak, albatta. Tildagi onomatopoik so'zlarning tabiatdagi tovushlarga to'la mos kelmasligi, bu tovushlar kompleksining tabiatdagi tovushlarning o'zginasi emasligini tabiatdagi bir narsaning tovushiga turli tilda, o'sha tilning o'ziga xos bo'lgan tovush komplekslari orqali har xil taqlid qilinishi manbalari yana bir marta tasdiqlaydi. Bir narsaning tovushiga har xil, turli xil tovush komplekslari orqali taqlid qilish hodisasi turli tillargagina xos bo'lmasdan, bir oilaga kiradigan tillarda ham, hatto, bir tilning turli dialektlarida ham ko'zga tashlanadi. Imitatsiyada esa tovush qanday eshitilsa, shunday takrorlashga harakat qilinadi. Tillarning har xil bo'lishidan qat'iy nazar, imitatsiya ularning hammasida asosan bir xil bo'ladi. Ular tabiatdagi tovushlarning nusxasi sifatida maydonga kelib, otlashish va fe'llashish xususiyatiga ega emas. SHuning uchun ularni alohida yoki ma'lum bir so'z turkumi sostavida qarash aslo mumkin emas. Ular sintaktik tomondan gapning biror bo'lagi vazifasida kela olmasligi jihatidan ham boshqa so'zlardan farqlanadi. Agar biz shu tipdagi tovushga taqlidga ega bo'lganimizda bizda

onomatopoik soʻz muammosi boʻlmas edi, deydi A.I.Germanovich². Tovushga taqlid soʻzlar tashqi moddiy dunyoning tovush tomonidan koʻrinishi haqidagi tushunchalarni anglatadi. Tushunchani anglatish jihatidan soʻzlar bir-birlaridan farq qiladilar. Bir xil soʻzlar borki, ular nominativlik funksiyasini bajarib, predmetlik maʼnosi bilan koʻrinadi, ikkinchi bir xil soʻzlar esa umumiy funksional va relyativ maʼnoda koʻrinadi. Onomatopoik soʻzlarni ana shu ikkinchi gruppada ichida qarash mumkin. Lingvistika qushlarning sayrashidan, itlarning hurishidan, mushukning miyovlashidan paydo boʻlgan tovushlarni ham, jonsiz narsalarning sinishi, bir-birlariga urilishi va boshqa holatlarda paydo boʻlgan tovushlarni ham, imitatsiyalarni ham oʻrganishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻymaydi. Ana shu narsa va jonivorlarning tovushlariga kishilarning taqlid qilishlari natijasida tilda sotsial qiymatga ega boʻlgan tovushlar komplekslaridan tashkil topgan soʻzlar paydo boʻladi. Bu tovush komplekslari til ixtiyoriga oʻtgach, til uni silliqlashtiradi, fonetik va struktural forma, maʼno beradi. Natijada, ular gapning biror boʻlagi vazifasini bajara oladi va tushuncha anglatish darajasigacha koʻtarila oladi. Xullas, onomatopoik soʻzlar: a) oʻzlarining leksik maʼnolariga ega; b) kishida umumiy taassurot hosil qilish darajasiga koʻtarila oladi. Bir tilda gapiruvchi hamma jamoa asosan ularni bir xilda tushunadi; v) oʻzlariga xos qurilishga, formaga ega; g) sodda holda asosan yordamchi feʼllar bilan birga keladi; d) gapda maʼlum boʻlak vazifasini bajarib, boshqa gap boʻlaklari bilan munosabatga kirisha oladi. Mana shunday xususiyatlarga ega boʻlgan soʻzlarni onomatopoik soʻz deb hisoblaymiz. Onomatopoikni ifoda etuvchi tovush kompleksining soʻz ekanligini eʼtirof qiladigan fikrlar chet el tilshunosligida ham uchraydi. Tovushga taqlid soʻzlar oʻzlari ifodalayotgan tovushning nomi boʻlmasdan, ularning bevosita ifodalanishidir degan edik. Demak, onomatopoik soʻzlar bilan ular ifodalayotgan hodisalar oʻrtasida bevosita aloqa mavjuddir. Bu oʻrinda narsa va uning nomi oʻrtasidagi munosabat masalasiga bir oz toʻxtashga toʻgʻri keladi. Bu muammo

² Германович, А. И. Междометия русского языка/ А.И. Германович. — Киев, 1966. — 172 с.

juda qadimgi davrlarda olimlar diqqatini o'ziga tortganligi ma'lum. Qadimgi grek olimlari til muammolariga asosan falsafiy nuqtai nazardan yondashib, narsa va uning nomi o'rtasidagi munosabat masalasida katta ikki guruhga bo'lindilar. Bu masala bo'yicha bo'lgan munozaralarda Geraklit, Demokrit, Protogor, Epikur kabi faylasuflar turli pozitsiyada turib ishtirok etdilar. Platon esa bu haqdagi fikrlarini o'zining *İKratill* dialogida bayon qildi. Platon nazariyasi bo'yicha, moddiy narsalar o'tkinchi xarakterga ega bo'lib, so'zlar unga bog'liq bo'lmagan holda doimiy yashovchi hodisa emish. Uningcha, ideyalar ob'ektiv va abstraktlik xususiyatiga ega. Stol, ot, non kabi real predmetlarning obyektivligi ularni ifodalovchi ideyalarga nisbatan kamroqdir (Masalan, umuman stol, umuman ot, umuman non kabi). Ko'pgina olimlar keyingi yillargacha ham stol, ot yo'qoladi, ular haqidagi ideya, ya'ni umuman stol, umuman ot tushunchasi saqlanib qolaveradi degan fikrda edilar. Ob'ektiv tashqi olam, tabiat, masalan, jonli va jonsiz narsalar, tosh, suv, shamol, temir kabilar turli holatda, turli xil tovush chiqaradi. Bu esa sezgi organimizga ta'sir qilib, bizda sezgi uyg'otadi. Kishi tashqi olamdan olgan sezgisini, taassurotini o'z tilining fonetik va leksik imkoniyatidan foydalangan holda ma'lum tovush komplekslari orqali ifodalaydi. Tilda boshqa hamma gruppadagi so'zlarga nisbatan ham tovushga taqlid so'zlar bilan ular anglatadigan ma'no o'rtasidagi aloqa bir-biriga yaqinroqdir. Bunday so'zlarni jahondagi hamma tillarda ham uchratish mumkin. Ammo har bir tildagi onomatopoik so'z o'sha tilning fonetik xususiyati, u tilda gapiruvchi xalqning geografik muhiti va shu kabi turli xil faktorlarga bog'liq ravishda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi, XX asrning yigirmanchi yillariga qadar tilshunoslikda onomatopoik so'zlarni o'rganishga bag'ishlangan maxsus ishlar maydonga kelmadi deyish mumkin. Boshqa ba'zi grammatikalarda esa onomatopoik so'zlar undovlarning bir turi ekanligini eslatish bilan chegaralaniladi. Taniqli tilshunos olimlarning leksikografik hamda tillarining u yoki bu masalasiga bag'ishlangan asarlarida ham ba'zan onomatopoik so'zlar to'g'risida yo'l-yo'lakay, lekin juda qimmatli fikrlar bayon qilingan. N.I.Ashmarin

tilshunoslikning bu sohasida kuzatish ishlarini boshlab berdi va bu masalaga bag'ishlab qator ilmiy asarlar yaratdi. N.I.Ashmarin Volga bo'yi turkiy xalqlari tillaridagi onomatopik so'zlarni besh katta semantik gruppaga ajratadi: tovushga taqlid, harakat va yorug'lik hodisalariga taqlid, kishi organizmida paydo bo'ladigan tovush xarakteriga ega bo'lmagan hodisalarga taqlid, bolalar so'zlariga taqlid kabi. Uning asarlarida onomatopik so'zlar genetikasi, bir tovushga turli tilda, hatto, bir tilning turli dialektlarida turli formada taqlid qilish va uning sabablari ko'p hollarda to'g'ri talqin qilinadi. N.I.Ashmarinning onomatopik so'zlarga doir asarlarida tilning kelib chiqishini onomatopik so'zlarga olib borib bog'lash tendentsiyasi ko'zga tashlanadi. Uning fikricha, til boshlang'ich davrlarda faqat mimemalardan tashkil topgan bo'lib, keyingi davrlardagina undan nutqning artikulyatsiyalashgan tovushlari kelib chiqqan. Mimemalardan nutq tovushlari paydo bo'lguncha til nutq tovushlarini va boshlang'ich so'zlarni tanlash va to'plash davrini boshidan kechirgan emish. N.I.Ashmarin hozirgi ko'pgina narsalarning nomi taqlid bilan bog'liq ekanligini aniqlay olmasligimizning sababi biz o'sha narsalarning doimiy nomiga aylanib ketgan mimemalarning chiqib kelishi uchun o'sha narsaning qaysi xususiyati sabab bo'lganligini bilmasligimizdir, deb ko'rsatadi. SHuning uchun u tirik va jonsiz tabiatning onomatopik so'zlarda aksini topa oladigan hodisalarini qunt bilan o'rganishni ta'kidlash bilan birga, tilning kelib chiqishini, uning praobrazlarini topish uchun mimikalarni, tana-gavda harakatlarini va ular bilan bog'langan tabiiy tovushlarni, qushlar hamda hayvonlar tilini o'rganish va ularni hozirgi til bilan chog'ishtirish kerakligi haqida gapiradi. Xullas, N.I.Ashmarinning tilning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyasi uni tovushga taqlid nazariyachilariga yaqinlashtirib qo'yadi. Ma'lumki, tovushga taqlid nazariyasiga qarshi chiquvchilar o'z davrlaridayoq u nazariyani kulgili ravishda Īvau-vau|| nazariyasi deb atagan edilar. N.A.Baskakov³ onomatopik so'zlar va undovlarni, ularning ba'zi bir farqlariga qaramasdan, semantik,

³ Baskakov N . A., Vvedeniye v izucheniye tyurkskix yazikov, 2 izd., M., 1969;

ham forma jihatdan bir kategoriyaga birlashtirish kerak, deb hisoblaydi. U onomatopoik soʻzlarni semantik tomondan tovushga taqlid soʻzlar va obrazga taqlid soʻzlar deb ikkiga boʻladi, hamda ularga xos xususiyatlarni alohida-alohida koʻrsatadi. N.A.Baskakov onomatopoik soʻzlarning yasalishi hamda ularning grammatik-funksional xususiyatlariga koʻproq ahamiyat beradi. A.N.Kononov⁴ ĩOʻzbek tili grammatikasill asarida onomatopoik soʻzlarni undovlarning bir koʻrinishi deb koʻrsatsa, 1956 yil nashr qilingan ĩHozirgi turk adabiy tilining grammatikasill asarida ularni alohida soʻz turkumi qilib ajratadi. A.N.Kononov oʻzbek tilida onomatopoik soʻzlarning tarsil-tarsil, vovul-vovul, poʻngʻul-poʻngʻul kabi koʻrinishlari haqida ham gapiradiki, bu albatta, shubhadan holi emas. Muallif vovul, poʻngʻul, tarsil kabi taqlid soʻz formalari vov, poʻng, tars oʻzaklariga -il elementining qoʻshilishi asosida paydo boʻlganligini toʻgʻri koʻrsatadi. Lekin bu negizlar oʻzbek tilida mustaqil qoʻllanmaydi. Ular vov-vov, tars-tars, poʻng kabi boshlangʻich holatda yoki vovulla, tarsilla, poʻngʻir-poʻngʻir, poʻngʻilla kabi formalarda ishlatiladi. A.Ishoqov onomatopoik soʻzlarni semantik tomondan klassifikatsiya qilishda oʻzidan oldingi olimlar klassifikatsiyasiga hech qanday oʻzgartish kiritmaydi. U onomatopoik soʻzlarning ogʻzaki nutqda, badiiy adabiyotda tutgan oʻrni, stilistik hamda fonetik xususiyatlariga alohida ahamiyat beradi: Tars-tarsni, tars-turuga oʻzgartirish bilanoq ularning maʼnosida yangi ottenka paydo boʻladi deb u juda toʻgʻri yozadi. B.M.Yunusaliev qirgʻiz tilida oʻzak soʻzlarining taraqqiyotiga bagʻishlangan asarida onomatopoik soʻzlarga koʻproq tarixiy aspektida yondashadi. B.M.Yunusalievni onomatopoik soʻzlarning kelib chiqishi, oʻzgarishi, negizning taraqqiyoti, maʼnolari, shu kabi ularning morfologik va semantik xususiyatlari koʻproq qiziqtiradi. Muallif tadqiqotlar natijasida onomatopoik soʻzlar ham ot va feʼllar kabi tilning qadimgi elementlaridandir, degan xulosaga keladi. B.M.Yunusalievning fikricha, obrazli soʻzlar tovushga taqlid soʻzlarga nisbatan ot va feʼllarga yaqin turadi, tovushga taqlid soʻzlardan esa

⁴ Kononov A.N., Istoriya izucheniya tyurkskix yazikov v Rossii, L., 1972;

keskin farq qiladi. Turkman tilidagi onomatopoik so'zlarni o'rganish va keng maydonda ilmiy yoritish yosh olim M.Xudoyquliev qalamiga mansubdir. Uning bu masalaga bag'ishlab yozgan asarlarida turkman tilidagi onomatopoik so'zlarning grammatik xususiyatlari har tomonlama va to'la yoritildi deyish mumkin. Usmonli turk, uyg'ur va boshqa turkiy tillardagi onomatopoik so'zlar to'g'risida maxsus kuzatish ishlari olib borilmagan. Ular haqidagi ayrim fikrlarni o'sha tillardagi juft va takroriy so'zlar to'g'risida yozilgan ayrim ishlardagina ko'ramiz. Turkiy tillar oilasiga mansub bo'lmagan boshqa tillarda ham onomatopoik so'zlarni o'rganishga bag'ishlangan ba'zi ishlar mavjud. Keyingi yillarda tilshunoslikda hind-evropa, mongol, ugrofin oilasiga kiruvchi tillardagi onomatopoik so'zlarni o'rganishga doir maxsus ishlar yuzaga keldi. G.A.Pak koreys tilidagi, T.I.Petrova esa nanay tilidagi onomatopoik so'zlarni tekshirdilar. Yuqorida tilga olingan tilshunoslar turli tillardagi onomatopoik so'zlarga u tillarning har birining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashdilar. Ammo mulliflar fikridagi umumiylik ularni bir-birlariga yaqinlashtiradi. Usha davrlarda onomatopoik so'zlar bo'yicha kuzatish ishlari olib borgan olimlar fikridagi umumiylikni, bizningcha, quyidagicha ko'rsatish mumkin. Birinchidan, ular onomatopoik so'zlarni ikki semantik gruppaga bo'ladilar. Bu olimlarning ba'zilari onomatopoik so'zlarni tovushga taqlid va obrazli so'zlar deb ikkiga bo'lsalar, ba'zilari esa ularni obrazga taqlid va tovushga taqlid so'zlar sifatida klassifikatsiya qiladilar. Ikkinchidan, ko'pchilik olimlar onomatopoik so'zlarni undovlardan ajratib, alohida so'z turkumi deb qaraydilar. Yuqorida aytganimizdek, onomatopoik so'zlar kategoriyasi tillarning ko'pchiligida u yoki bu darajada ishlangan.

1.2 Onomatopoeic so'zlarning qiyosiy tahlili

Biz kundalik hayotimizda turli-tuman tovushlarni eshitamiz. Barglarning shitirlashi, qushlarning chug'ur-chug'uri, suvning shildirashi va shaloplashi..., motorlarning guvillashi, g'ildiraklarning g'ijillashi, gudoklar tovushi, qo'ng'iroqlar jiringi. Odamlarning ovozlari, qadam tovushlari, idish-tovoqlarning jarang-jurungi... Eng sokin va eng kimsasiz joylarda xam qulog'imiz har doim tovushlarni ilg'aydi, chunki hamma joyda nimadir harakatlanadi, uriladi, tebranib turadi... Shuning uchun bo'lsa kerak, qadimdan insoniyat tabiat tovushlarini nutqda aks ettiruvchi birliklar, ya'ni, taqlidiy so'zlarga qiziqqan.

Taqlidiy so'zlar haqidagi ta'limotni qadimgi Yunonistonda er.av IV-III asrlarda stoiklar oqimiga mansub faylasuflar yaratgan bo'lib, tovushga taqlid qilib so'zlashni – onomatopiya nazariyasi deb atashgan. Ularning ushbu nazariyani yaratishdan ko'zlagan maqsadlari shundan iboratki, stoiklar so'zlarning etimologiyasini izohlash uchun «birlamchi so'zlar»ni aniqlashga harakat qildilar. Bunday birlamchi so'zlar, ularning fikricha, tovushlar simbolikasi yoki tovushga taqlid qilish, ya'ni, «yashmesis» bo'lib, ayrim tovushlarga qandaydir ma'no berishga asoslangan edi. Go'yo til mana shunday dastlabki boshlang'ich so'zlar (yun.«archai») dan kelib chiqqan deb hisoblaganlar. Dastlabki taqlidiy so'zlar deb faraz qilingan qismlar «radices», «radix» ildiz (корень) o'zbek tilida «o'zak» nomi bilan atalgan. Stoiklarning tovushga taqlid nazariyasining tarafdorlari XX asrda ham mavjud bo'lgan. Bularga nemis faylasufi va matematigi G.V.Leybnits va rus olimi N.I.Ashmarinlarni misol keltirishimiz mumkin. SHunisi diqqatga sazovorki, bugungi kunda ham

taqlidiy soʻzlar koʻpgina tillarda onomatopiya va mimemalar deb ataladi, shu jumladan ingliz va oʻzbek tillarida xam. Oʻzbek tilida taqlidiy soʻzlar soʻz turkumlaridan biri boʻlib, morfologiyada oʻrganilsa, ingliz tilida taqlidiy soʻzlar leksikologiyaning soʻz yasash qismidagi tadqiq obʻekti xisoblanadi. Nazariy adabiyotlarda tovushga taqlid soʻzlar maʼnosining ekstralingvistik faktorlik dahldorligi, yaʼni tilshunoslikdan tashqarida boʻlgan realikka taalluqli ekanligi, tilda maʼlum zarurat asosida kelib chiqqanligi qayd etilgan.

Ingliz va oʻzbek tillarida bunday soʻzlar turlicha nomlar bilan ataladi. Oʻzbek tilida ular mimemalar yoki taqlidlar deb atalsa ingliz tilida onomatopiya, ehoizm (O.Esperson tomonidan kiritilgan atamalar, tovushga taqlid soʻzlar (sound imitation words) deb nomlanadi.

Tovushga taqlid deganda, soʻzlarning turli taʼsirlar ostida oʻzi chiqargan tovush orqali nomlanishi tushuniladi. Lekin tovushga taqlid soʻzlar, real tovushlarni toʻgʻridan-toʻgʻri til qonuniyatlariga boʻysunmagan holda ifoda etadi degan fikr ham mavjud boʻlib, bizning mazkur fikrga qoʻshilishimiz qiyin, chunki tabiatda bir xil boʻlgan tovushlar har xil tillarda turlicha aks ettirilib ifodalanali. Masalan, buni quyidagi jadvalda yaqqol koʻrish mumkin.

сўзлар	инглиз	рус	ўзбек	немис
Ит	Bark, howl	Лаять, выть	Вовулламок	Bellen
Хўроз	Cock-a-doodle-	Ку-ка-ре-ку	Кук-кукур-кур	Ki-ke-ri-ke
Ўрдак	do	Крякать	Гак-гак	Schnattern
Бақа	Quack	Квакать	Вак-вак	Quaken
Сув	Croak	Журчанье	Шилдираш	Das murmen
Юлдуз	Bubble	Сверкать	Ялт-ялт	Blitzen
Кўнғирок	Glitter	Динь-динь	Жиринг	Klingeln
Илон	Jingle	Щипеть	Виш-виш	Zischen
	Hiss			

Jadvalda koʻrinib turibdiki, ingliz tilida xudi rus, oʻzbek va nemis tillaridagi kabi onomatopoik soʻzlar shu tildagi fonetik xususiyatlarni aks ettirgan kombinatsiya yoʻli bilan birikadi. Taqlidiy soʻzlarning har ikkala tildagi maʼnosiga koʻra turlariga keladigan boʻlsak, ingliz tilida taqlid soʻzlar maʼnosiga koʻra 5 turga ajratiladi.

1. Harakatni ifodalovchi tovushlarga taqlidlar: bang, bump, crash, smack, clop, hum, dash.

2. Odamlarning bir-biri bilan gaplashgan (suhbatlashgan)da chiqaradigan tovushlarga taqlid soʻzlar: babble, whine, giggle, grun, whisper, chatter, grumble, mitter, titter

3. Hayvon, parranda va hasharotlarning tovushlariga taqlid soʻzlar: huzz, roar, moo, neigh, crook, crow, cackle, howl, purr

4. Metall buyumlarning tovushiga taqlid soʻzlar: clink, clank, ding, jingle, tinkle, shriek

5. Suv tovushiga taqlid soʻzlar: booble, gush, gurgle, splash, flush

Oʻzbek tilida esa taqlid soʻzlar maʼnosiga koʻra ikkiga boʻlinadi:

1) tovushga taqlid soʻzlar

2) obraz (holat, tasvirga) taqlid soʻzlar

Tovushga taqlid soʻzlar eshitish bilan, obrazga taqlid soʻzlar koʻrish bilan aloqador, yaʼni tovushga taqlid soʻzni eshitish mumkin (guv-guv, gumbur-gumbur).

Obrazga oid mimema (lip-lip,yalt-yult)ni esa faqat koʻrish mumkin. Ammo oʻz navbatida tovushga taqlid soʻzlar bir necha turlarga boʻlinadi:

1. Insonning turli holati va kayfiyati tufayli sodir boʻladigan tovushlarga taqlid soʻzlar: xa-xa, xi-xi, inga-inga, pix-pix kabilar.

2. Hayvon, qush va hasharotlar chiqargan tovushlarga taqlid soʻzlar: vov, mumu, ma-a, miyov-miyov, vish-vish, kag-kag, viz-viz kabilar

3. Tabiat tovushlariga taqlid soʻzlar: gumbur-tumbur, jangur-jungur,tak-tak, tars-turs, shildir-shildir(shaldir-shuldur), taraq-turuq kabilar.

Koʻrinib turibdiki, oʻzbek tilidagi tovushga taqlid soʻzlarning turlari ingliz tilidagi mimemalarning turlariga yaqin. Chunki har ikkala tilda inson chiqaradigan tovushlarga, hayvon, parranda va hasharotlar ovozlari taqlidlar bir xil boʻlib, bir xil turlarga kiritilgan. Ingliz tilidagi metallardan yasalgan narsalar, hamda suv tovushlariga taqlid soʻzlar oʻzbek tilida umumlashtirilib, tabiat tovushlari nomiga taqlid soʻzlar deb atalgan.

O'zbek tilida obrazga taqlid so'zlar ham bir nechta kichik guruhlarga bo'linadi.

1. Harakat va uning xarakteristikasini bildiruvchi obrazga taqlid so'zlar. Lop, lik-lik, lapang-lapang kabilar.

2. Kishi va narsa-buyumlarning holatini, ya'ni tashqi ko'rinishining tasvirini ifodalovchi obrazli mimemalar: dong (qotdi), xang-mang (bo'ldi), lang (ochiq), hil-hil (pishdi).

3. Yorug'lik tasvirini ifodalovchi taqlid so'zlar: jivir-jivir, yarq, milt-milt, yilt, lip. Ingliz tilining o'ziga xosligi shundaki, unda obrazga taqlid so'zlar mavjud emas.

Lekin ingliz tilida sparkle, glitter, flash, blaze, glimmer kabi so'zlar mavjud, shuning uchun ingliz tilidagi mimemalar bilan o'zbek tilidagi taqlidlarning ma'nosiga ko'ra turlarini ko'rib o'tgandan so'ng, yuqoridagi so'zlarni shartli ravishda obrazga taqlid so'zlarga kiritsak bo'ladi. Chunki ular yorug'lik ko'rinishiga taqlid so'zlar bulib, ularni faqat ko'z bilan ko'rish mumkin. Xullas, ingliz va o'zbek tillaridagi taqlidiy so'zlarni o'zaro qiyoslash shuni ko'rsatdiki, mazkur tillarda taqlidlar (garchi turli nomlar bilan yuritilsa ham) mavjud bo'lib, ular turlicha tasnif qilinadi. Ayrim bir taqlidlar esa alohida olingan tillardagina mavjuddir. O'zbek tilida holatga taqlidning yuzga yaqin turlari farqlansa, ingliz tilida mazkur holat kuzatilmaydi.

1.3 Onomatopoik so'zlarning morfologiyada tutgan o'rni

Tilshunoslikda onomatopoik so'zlarni o'rganishga bag'ishlangan maxsus ishlar o'tgan asrning yigirmanchi yillaridan keyin yuzaga kelgan va turkiy tillarning ko'pchiligida onomatopoik so'zlar kategoriyasi u yoki bu darajada ishlangan. O'zbek tilshunosligida esa bu masala 60-yillargacha alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan emas. O'sha paytgacha yozilgan grammatikalarda va qo'llanmalarda onomatopoik so'zlarga juda kam o'rin berilgan va ularning ko'pchiligida onomatopoik so'zlar undov so'zlarning ajralmas qismi sifatida ko'rsatilar edi.

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab onomatopoik so'zlar masalasi olimlarimiz e'tiborini o'ziga tortdi. Ular mavzu ustida ma'lum darajada kuzatishlar olib borib, u yoki bu holatdagi o'z fikrlarini o'rtaga tashladilar. Jumladan, A.N.Kononov «O'zbek tili grammatikasi»⁵ asarida onomatopoik so'zlarni undovlarning bir ko'rinishi deb ko'rsatsa, 1956-yili nashr qilingan «Hozirgi turk adabiy tilining grammatikasi»⁶ asarida ularni alohida so'z turkumi qilib ajratadi. Demak, A.N.Kononov oldingi asarlarida tasviriy so'zlarni undovlarning bir turi sifatida ko'rsatsa ham, 1956-yili ularni mustaqil so'z turkumi qilib ajratish kerak, degan xulosaga keladi va «Hozirgi o'zbek adabiy tili grammatikasi» asarida bu xulosasini qat'iy bayon qiladi.⁷

A.G'ulomov o'zining maktablar uchun tuzgan darsliklarida, «O'zbek tili morfologiyasiga kirish» asarida onomatopoik so'zlarni undovlarning bir turi sifatida ko'rsatsa-da, 1957-yil avgustida maktablarda o'zbek tilini o'qitishni yaxshilash masalalari bo'yicha o'tkazilgan respublika konferensiyasida qilgan ma'ruzasida onomatopoik so'zlarni ayrim tur qilib ajratish lozimligini alohida qayd

⁵ Кононов А.Н. Грамматика узбекского языка.- Ташкент, 1948.

⁶ Кононов А.Н. Грамматика современного турецкого литературного языка.- М.-Л., 1956.

⁷ Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка.- М.-Л., 1960.

qiladi⁸. U.Tursunov va J.Muxtorov⁹, S.Mutallibov¹⁰, S.Usmonovlar¹¹ o'z asarlarida tasviriy so'zlarni undovlardan ajratib, alohida so'z turkumi sifatida qaraydilar.

S.Mutallibov 1956-yili «O'qituvchilar gazetasi»da taqlid so'zlar to'g'risida maqola e'lon qildi. Bu maqolada tovushga taqlid so'zlar ham, obrazli so'zlar ham tovushga *taqlid so'zlar* termini bilan ataladi. Ishda ancha chalkash fikrlar ham aytilgan. Ammo S.Mutallibov keyinroq nashr qilgan ocherklarida¹² bu masalaga aniqliklar kiritdi. Lekin har ikkala ishda ham tasviriy so'zlarga oid ayrim misollarni izohlashda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilgan. Masalan, ko'proq tovushga taqlid so'zlarni harakat va holat tasvirini bildiruvchi so'zlar bilan aralashtirib yuborish hollari uchraydi. Uning maqolasida *yaltiroq, yalt-yult, lim-lim, g'imir-g'imir* so'zlarini, ocherklarida esa *dikillamoq*¹³ kabi so'zlarni tovushga taqlid deb atashi fikrimizning isbotidir. Keltirilgan so'zlarni tovushga taqlid so'z emas, holatga taqlid (obrazli) so'zlar deb hisoblash kerak.

S.Mutallibov tovushga va holatga taqlid so'zlarni birlashtirib, ularga quyidagicha ta'rif beradi: «Hayvonlar, jonivorlar, qush-qurtlar va odamlar, narsalar harakatidan paydo bo'lgan tovushlarga shartlicha taqlid qilib yasalgan so'zlar *onomatopoik so'zlar* deb ataladi»¹⁴.

Bu ta'rif onomatopoik so'zlarning barcha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtira olmaydi. Bu ta'rifda holatga taqlid so'zlarga fikr bildirilmagan.

Muallifning onomatopoik so'zlar yasalishi to'g'risidagi fikri ham e'tirozdan xoli emas. Eng avvalo onomatopoik so'zlarning yasalishi bilan ulardan boshqa so'z turkumlarining yasalishlarini farqlash kerak, ya'ni ularga bir hodisa sifatida qarash yaramaydi.

⁸ Фуломов А. Ўзбек тилшунослигининг ҳозирги аҳволи ва мактабда тил ўқитишнинг вазифалари //«Ўзбекистон маданияти», 1957 йил 28 август.

⁹ Турсунов У., Мухторов Ж. Ҳозирги замон ўзбек тили. Морфология. - Самарқанад, 1960.

¹⁰ Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк.- Тошкент, 1959.

¹¹ Усмонов С. Междометия в современном узбекском языке.- Ташкент, 1952.

¹² Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк.- Тошкент, 1959 210-219-бетлар.

¹³ Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк.- Тошкент, 1959 212-бет.

¹⁴ Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк.- Тошкент, 1959, 210-бет.

Tadqiqotchi tovushga taqlid soʻzlar morfologik yasaliş xususiyatiga ega deb taʼkidlaydi-yu, lekin koʻproq ishda onomatopoik soʻzlardan feʼl, ot, sifat kabi boshqa soʻz turkumlarining yasaliş toʻgʻrisida gapiradi.

S.Mutallibov onomatopoik soʻzlarning turlari haqida gapirib shunday yozadi: «Tovushga taqlid soʻzlar tuziliş asosiga koʻra ham ikkiga ayriladi:

a) eshitgan tovushga shartlicha taqlid qilib yasalgan soʻzlar: *pish-pish uxlamoq, taq-taq yurmoq*;

b) narsalar va hodisalar koʻrinishiga shartlicha taqlid qilib yasalgan soʻzlar: *yalt-yult, lim-lim*.¹⁵

Tasnifdan obrazli soʻzlar tovushga taqlid soʻzlarning bir turi, uning bir koʻrinishi ekan, degan xulosaga kelish mumkin. Bu yerda termin qoʻllashdagi yanglishlik sezilib turibdi.

Soʻngra muallif onomatopoik soʻzlarning semantik guruhlarini nima uchundir tuzilişiga koʻra deb hisoblaydi. Tilshunoslardan N.A.Kononov, N.A.Baskakov, L.N.Xaritonovlar onomatopoik soʻzlarni anglatgan maʼnolariga qarabgina yuqoridagi kabi ikki guruhga ajratadilar.

S.Mutallibov onomatopoik soʻzlarning takrorlanishini, juftlashgan shakllarini «qoʻshma onomatopoik soʻzlar» sifatida talqin qiladi. Bu oʻrinda ham yanglishlik mavjud. Aslida takror, juft soʻzlar bilan qoʻshma soʻzlar orasidagi farq bularni bir terminga birlashtira olmaydi.

«Hozirgi zamon oʻzbek tili»¹⁶ asarida onomatopoik soʻzlar «mimemalar» termini ostida, qisqa boʻlsa-da, alohida kategoriya sifatida ajratilib koʻrsatiladi. Ammo asarning baʼzi boblarida u undovlar sifatida qarayverilgan.

U.Tursunov, J.Muxtorovlarning «Hozirgi zamon oʻzbek tili. Morfologiya»¹⁷ qoʻllanmasida onomatopoik soʻzlar qisqa boʻlsa-da, alohida kategoriya sifatida oʻrganilgan. Mualliflar onomatopoik soʻzlarga quyidagicha taʼrif beradilar: «Onomatopoik soʻzlar shaxs, predmet va turli jonivorlar tovushining, harakat va holat obrazining tashqi olamdan olgan taqlidi-kopiyasidir. Onomatopoik soʻzlar

¹⁵ Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк.- Тошкент, 1959, 214-бет.

¹⁶ Ҳозирги замон ўзбек тили.-Тошкент: «ЎзФА нашриёти», 1957.

¹⁷ Турсунов У., Мухторов Ж. Ҳозирги замон ўзбек тили. –Самарқанд, 1960. 189-191-бетлар.

turli xildagi ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz tovush va qichqiriqlarni, harakat va holat obrazini bildiradi»¹⁸.

Mualliflar onomatopoik soʻzlarni ikkiga: tovushga onomatopoik soʻzlar va obrazli soʻzlarga boʻlib, ularga taʼrif beradilar va misollar bilan izohlaydilar.

Onomatopoik soʻzlarni tuzilishi jihatidan esa yakka va juft onomatopoik soʻzlarga boʻladilar. Bu oʻrinda onomatopoik soʻzlarning takroriy shakli ham juft shakli ichida koʻrib oʻtilgan, yaʼni juft va takroriy onomatopoik soʻzlar aralash holda izohlangan.

Shuningdek, ishda onomatopoik soʻzlarning undovlardan farqi haqida qisqa oʻrinda boʻlsa-da, munosabat bildirilgan. Shu bilan birga, onomatopoik soʻzlardan boshqa soʻz turkumlari yasaliishi va ularning sintaktik vazifalari haqida ham fikr bildirilgan.

U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlar tomonidan nashr etilgan «Hozirgi oʻzbek adabiy tili»¹⁹ asarida ham onomatopoik soʻzlar haqida yuqoridagi kabi fikrlar bildirilgan.

Gʻ.Abdurahmonovning umumiy tahriri ostida chop etilgan, E.Begmatov tomonidan yozilgan «Hozirgi oʻzbek adabiy tili»²⁰ asarida onomatopoik soʻzlar «Tasviriy soʻzlar» termini ostida berilib, nisbatan kengroq maʼlumotlar berilgan. Unda tasviriy soʻzlarga quyidagicha taʼrif beriladi: «Obyektiv olamdagi xilma-xil tovushlar hamda narsa va hodisalar harakatining obrazli holatlariga taqlid qilish orqali paydo boʻlgan soʻzlar tasviriy soʻzlar deb ataladi»²¹.

Ishda tasviriy soʻzlar maʼno jihatidan ikkiga: onomatopoik soʻzlar va obrazli soʻzlar; tuzilishiga koʻra uchga: sodda, takroriy va juft tasviriy soʻzlarga boʻlib oʻrganilgan. Shuningdek, tasviriy soʻzlarning baʼzi fonetik xususiyatlari, tasviriy soʻzlarning soʻz yasash tizimidagi oʻrni, ulardagi otlashish (*shov-shuv+i* kabi) hodisasi va ularning muhim sintaktik vazifalari haqida fikr yuritilgan.

¹⁸ Турсунов У., Мухторов Ж. Ҳозирги замон ўзбек тили. –Самарқанд, 1960.189-бет.

¹⁹ Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент, 1965, 119-121-бетлар.

²⁰ Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. -Тошкент, 1966, 375-387-бетлар.

²¹ Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. -Тошкент, 1966,375-бет.

Ishda tasviriy soʻzlar boshqa soʻz turkumlari hisobiga boyimasligi, yangi tasviriy soʻzlar ularning oʻzidan maʼlum grammatik shakllar vositasida hosil qilinishini (*shir-t-shirt, shir-q-shirq, shiq-ir-shiqir, shar-t-shart* kabi) tasviriy soʻzlarning morfologik belgisi sifatida talqin qilingan.

Oʻzbek tilshunosligida tasviriy (onomatopoik) soʻzlarni oʻrganish borasida R.Qoʻngʻurovning xizmatlari katta.

R.Qoʻngʻurovning tasviriy soʻzlar borasidagi ilmiy kuzatishlari natijasida «Oʻzbek tilida onomatopoik soʻzlar haqida baʼzi mulohazalar»²², «Oʻzbek adabiy tilida tasviriy soʻzlarning fonetik xususiyatlari haqida»²³, «Oʻzbek tilida onomatopoik soʻzlarning oʻrganilishi haqida»²⁴, «Tasviriy soʻzlarning leksik xususiyatlari haqida»²⁵, «Hozirgi zamon oʻzbek tilida tasviriy soʻzlarning semantik klassifikatsiyasi»²⁶ kabi qator maqolalari yuzaga keldi. U bu boradagi, yaʼni, oʻzbek tilshunosligida tasviriy soʻzlarning umumiy tavsifi, qurilish, soʻz yasash tizimidagi oʻrni, fonetik, leksik, grammatik, sintaktik xususiyatlarini umumlashtirib, 1962-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va 1966-yilda «Oʻzbek tilida tasviriy soʻzlar»²⁷ nomli monografiyasi nashr etildi. Bu ish soʻnggida tasviriy soʻzlarning qisqacha lugʻati ham berilgan.

R.Qoʻngʻurov monografiyaning «Tasviriy soʻzlarning oʻrganilish tarixidan» deb nomlangan qismida Tilshunoslikda tasviriy soʻzlarning oʻrganilishi haqida toʻxtalib, Tilshunos olimlarning tasviriy soʻzlar borasidagi qarashlariga u yoki bu darajada fikr bildiradi.

«Tasviriy soʻzlarning umumiy xarakteristikasi» qismida tasviriy soʻzlar haqida umumiy fikrlar bildirib, taqlid soʻzlar borasida quyidagicha xulosaga keladi:

²² Kўnғуров Р. Ўзбек тилида тақлидий сўзлар ҳақида баъзи мулоҳазалар // Самарқанд ун-тининг асарлари, Янги серия, 102-чиқариш. Ўзбек тилшунослиги кафедраси.-Самарқанд, 1960.

²³ Kўнғуров Р. Ўзбек адабий тилида тасвирий сўзларнинг фонетик хусусиятлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1961, 4-сон, 44-48-бетлар.

²⁴ Kўнғуров Р.Ўзбек тилида тақлидий сўзларнинг ўрганилиш ҳақида // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. 2-китоб. –Тошкент, 1961.

²⁵ Kўнғуров Р. Тасвирий сўзларнинг лексик хусусиятлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1962, 3-сон, 32-35-бетлар.

²⁶ Kўнғуров Р. Ҳозирги замон ўзбек тилида тасвирий сўзларнинг семантик классификацияси // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. 3-китоб. –Тошкент, 1961.

²⁷ Kўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. Тошкент, 1966, -154 бет.

- a) o'zlarining leksik ma'nolariga ega;
- b) kishida umumiy taassurot hosil qilish darajasiga ko'tara oladi. Bir tilda gapiruvchi hamma kollektiv asosan ularni bir xilda tushunadi;
- v) o'zlariga xos qurilishga, formaga ega;
- g) sodda holda asosan yordamchi fe'llar bilan keladi;
- d) gapda ma'lum bo'lak vazifasini bajarib, boshqa gap bo'laklari bilan munosabatga kirisha oladi. Mana shu xususiyatga ega bo'lgan taqlidni so'z deb hisoblash mumkin²⁸.

Shuningdek, bu qismda undovlar bilan tasviriy so'zlarning bir-biriga yaqin, o'xshash xususiyatlarini o'zbek tili materiallari asosida quyidagicha:

1. Tasviriy so'zlar va undovlar harakat obrazi, tovush va emotsiyaning nomini ko'rsatmaydi, balki ularning bevosita ifodalanishi hisoblanadi.

2. Undov va tasviriy so'zlar (yasovchi affikslarsiz) o'zagi ism sifatida qabul qilinadi. Masalan, *oh, uh, shart, gurs, milt, yalt-yalt, jildir-jildir* va boshqalar.

3. Har ikki kategoriyada ham nominativlik xarakterining yo'qligi ularni boshqa kategoriyalardan, turkumlardan ajratib turadi.

4. O'xshash affektiv bo'yoqqa, ekspressivlikka ega va boshqalar²⁹ deb ko'rsatsa, ularning faqat o'ziga xos, bir-biridan ajratib turuvchi xususiyatlarini quyidagicha izohlaydi:

a) Semantik tomondan undovlar so'zlovchining ko'proq ichki kechinmasini, his-hayajonini, buyruq, xitob va iltimosini bildiradi. Tasviriy so'zlar esa kishilar va boshqa predmetlarning tovushlari va harakatlarini kopiya qilgandek tovush yoki harakat obrazi sifatida ifodalaydi. Emotsionallik, buyruq, iltimos tasviriy so'zlar uchun xos emas.

b) Undovlar nutqda modal ma'no ifodalab, bu xususiyati bilan yuklamalar hamda modal so'zlarga yaqin turadi. Tasviriy so'zlar predmetning harakatini va tovushga taqlidini bildirib, ravish va sifatlarga yaqin turadi, ular uchun modallik xos emas.

²⁸ Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. Тошкент, 1966, 22- бет.

²⁹ Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар, Тошкент, 1966, 33- бет.

c) Tasviriy soʻzlarda substantivlashish kuchli, undovlarda esa bu xususiyat taraqqiy etmagan. Tasviriy soʻzlarda takroriy forma tovush yoki harakatni kuchaytirishdan tashqari, harakatning birdan ortiq boʻlganligini, davomlilikini ham bildiradi. Undovlarda esa takror koʻproq emotsionallikni oshiradi, his-hayajonni kuchli qilib beradi.

d) Tasviriy soʻzlar soʻz yasash sistemasida juda aktiv qatnashadi. Undovlarda, *pish-pish//pisht-pisht*, *voy-voy//voy-voyla* tipidagi bir necha holatdan tashqari, soʻz yasalishi hodisasi yoʻq darajada.

e) Oʻzbek tilida undovlar faqat demoq yordamchi feʼli bilan birika oladi. Tasviriy soʻzlar esa, *etmoq*, *demoq* baʼzan *qilmoq* hamda boshqa mustaqil feʼllar bilan birika oladi.

f) Tasviriy soʻzlar gapning mustaqil boʻlaklari (ega, kesim, aniqlovchi, toʻldiruvchi, hol) vazifasida kela oladi. Undovlar esa odatda gapning boshqa boʻlaklari bilan bogʻlanmay, «mustaqil gap» prepozitiv yuklama (S. Usmonov) vazifasida keladi, xolos.

g) Tasviriy soʻzlarni maʼlum bir formulaga solish mumkin (undosh+unli+undosh yoki undosh+unli+undosh+undosh)³⁰.

Yuqoridagi xususiyatlar asosida muallif undovlar bilan onomatopik soʻzlarni bir turkumga birlashtirish notoʻgʻri ekanligini, ularni alohida-alohida soʻz turkumi sifatida oʻrganish kerakligini taʼkidlaydi.

«Tasviriy soʻzlarning baʼzi bir leksik va fonetik xususiyatlari» qismida onomatopik soʻzlarning tarixiy kategoriya ekanligini, davrlar oʻtishi bilan tasviriy soʻzlarning badiiy asar matnida koʻproq uchrashi misollar asosida koʻrsatib berilgan. Shuningdek, ularning fonetik xususiyatlari, tasviriy soʻzlardagi boʻgʻin tuzilishi va ulardagi epinteza (*epinteza* (grek.kiritish). Soʻz ichida (yoki boshida) tovush orttirilishi: *ing /gʻing*, *apil/tapil* kabi), geminasiya (ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi: *gʻijir-gʻijir// gʻijilla* kabi) hodisalari izohlab berilgan.

³⁰ Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар, Тошкент, 1966, 34-35-бет.

«Tasviriy soʻzlarning strukturasi» qismida esa onomatopoiik soʻzlarni tuzilishiga koʻra: 1) sodda tasviriy soʻzlar 2) reduplikatsiyalashgan (*reduplikatsiya* (lot.ikkilanish) soʻzni takror formada qoʻllash, takroriy soʻz hosil qilish usuli: *taq-taq, piq-piq* kabi) tasviriy soʻzlar 3) juft tasviriy soʻzlarga boʻlib oʻrganadi.

«Tasviriy soʻzlarning oʻzbek tili soʻz yasash sistemasidagi roli» qismida onomatopoiik soʻzlardan yasalgan otlar, sifatlar, feʻllar va ravishlar alohida-alohida oʻrganiladi.

«Tasviriy soʻzlarning sintaktik funksiyalari» qismida esa onomatopoiik soʻzlarning gapda ega, kesim, aniqlovchi, izohlovchi, hol vazifalarida kela olishi misollar yordamida asoslab berilgan.

Ishning xulosa qismida tadqiqotchining ilmiy kuzatishlari natijasida yuzaga kelgan umumiy xulosalari bayon qilingan.

Demak, oʻzbek tilshunosligida onomatopoiik soʻzlar tadqiqi R.Qoʻngʻurov nomi bilan uzviy bogʻliq. Olimning bu borada olib borgan izlanishlari tilshunosligimizda ilmiy qimmatga ega.

«Oʻzbek tili grammatikasi» (1975) ning «Taqlid soʻzlar» qismi ham R.Qoʻngʻurov tomonidan yozilgan va bu asarda olimning ushbu soʻzlar turkumiga oid asosiy qarashlari oʻz ifodasini topgan.

Onomatopoiik soʻzlar kishilar, boshqa jonli va jonsiz predmetlar va hodisalar chiqargan tovushlar taqlidni – ularning turli xil koʻrinishi, holat, harakatlari tasavvurini ifodalovchi birliklar sifatida izohlangan hamda tovushga taqlid va obrazga taqlid soʻzlar tarzida guruhlangan. Oʻz navbatida, har bir guruh yana maʼlum semantik maydonlarga birlashtirilgan. Masalan, tovushga taqlid soʻzlar – jonli predmetlar tovushiga taqlid asosida: kishilarning harakatlaridan paydo boʻlgan va turli hayvon, jonivorlar tovushlariga; jonsiz predmetlar tovushiga taqlid asosida: qattiq jismlar; har xil mexanizmlar, motorlar, transport kabilarning harakatidan va qurollardan oʻq uzish paytida paydo boʻlgan; gazzimon predmetlar va suyuqliklar harakatidan paydo boʻlgan tovushlarga taqlid soʻzlar tarzida

umumlashtirilgan.³¹ Ayni paytda bu semantik maydonga kirmaydigan *g'arj-g'urj*, *chip-chip*, *jiz-biz*, *chirt-chirt* singari onomatopik so'zlar ham borligi ta'kidlab o'tilgan. Obrazga taqlid so'zlar esa harakatni va uning tavsifini bildiruvchi; kishi va boshqa predmetlarning holati, tashqi ko'rinishi tasvirini ifodalovchi, yorug'lik tasvirini ifodalovchi semantik guruhlarga birlashtirilgan. Ularning ma'nolari matnda o'zgarishi mumkinligi ham ta'kidlab o'tilgan: «Bir tasviriy so'z ma'lum o'rinda tovushga taqlidni bildirsa, boshqa o'rinda unga omonim sifatida narsa va hodisalarning harakat-holat obrazini ifodalaydi. Bu ma'no esa kontekstda oydinlashadi. Chog'ishtiring: *Devor gup etib quladi* (tovushga taqlid so'z) – *Gup-gup qor yog'moqda* (obrazli so'z); *Osh burq-burq qaynamoqda* (tovushga taqlid so'z) – *Burq-burq tutun tarqaladi* (obrazli so'z)».³²

1978-1980 yillarda R.Qo'ng'urovning «Hozirgi o'zbek tilida o'zgarmaydigan so'zlar» asari nashr etildi. Asarning ikkinchi qismi onomatopik va modal so'zlar tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, muallifning bu boradagi avvalgi qarashlari yangiliklar bilan to'ldirildi va material o'quv jarayoniga moslab bayon qilindi. Jumladan, asarda onomatopik so'zlarning fonetik shakllanishi, ma'no turlari, tuzilishi, so'z yasalishidagi roli, gapdagi vazifalari singari bo'limlar mavjud. Shu bilan birga, unga «Tasviriy so'zlarning stilistik xususiyatlari» degan qism kiritilgan.

Asar muallifining qayd etishicha, tasviriy so'zlar gapda ifodalangan mazmunga aniqlik, tasviriylik kiritish uchun ishlatiladi. Ularning boshqa vazifasi yo'q. Gapning mazmuniga boshqa bir o'zgartirish kiritmaydi. Shu sababli gap tarkibidagi tasviriy so'zni tushirib qoldirsak, uning ma'nosida katta bir o'zgarish yuz bermaydi, balki tasviriylik yo'qoladi, xolos. Xuddi shuning o'zi, birinchi navbatda, tasviriy so'zlarning stilistik kategoriya ekanligini ko'rsatadi.³³

Shuningdek, bu tushirib qoldirishni tasviriy so'zlar qo'llanishining hamma holatlariga tegishli, deb xulosa chiqarish ham to'g'ri emasligi ta'kidlanadi va

³¹ Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975, 602-603-бетлар.

³² Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975, 605-бет.

³³ Қўнғуров Р. Ҳозирги ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар. II қисм. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1980, 30-бет.

misollar asosida fikr tasdiqlanadi. Masalan: *Maysara. O'g'ridan qochirib qo'ydim, deyman. Lekin kelib bundoq quyrug'ingizdan ushlasa, «moo» deb qo'yasizda, shattalaysiz* (Hamza) - *O'g'ridan qochirib qo'ydim, deyman. Lekin kelib bundoq quyrug'ingizdan ushlasa, ... deb qo'yasizda, shattalaysiz.*

Funksional stilistik nuqtayi nazardan tasviriy so'zlar, asosan, og'zaki so'zlashuv nutqi va badiiy nutq uchun xosdir. Rasmiy ish qog'ozlari, ilmiy uslublar uchun bunday so'zlarning ishlatilishi xos emas. Publisistik uslubda ham ayrim vaqtlardagina tasviriy so'zlarga murojaat qilinadi. Badiiy uslubda so'zlarning bu turkumi ko'proq bolalar adabiyotida, dramatik asarlarda ko'zga tashlanishini muallif alohida ta'kidlaydi.

R.Qo'ng'urov onomatopik so'zlar sinonimiyasiga ham e'tiborni qaratadi va *yig'lamoq* semasi ostida birlashadigan so'zlarni tahlil qiladi. Ular quyidagilar: *bag'-bug', big'-big', biq-biq, piq-piq, inga-inga*. Yoki doira ovozi – *baqa-bang, gij dang, gij bang, gij dang-gij dang, taka-tum-tak*; kulmoq – *xoxolamoq, gurr etib kulmoq, voh-ho-ho deb kulmoq, hirlinglamoq, irjaymoq, tirjaymoq, jilmaymoq*; karnay ovozi – *vahat-vaha, vahu-vaho, vot-vot, vot-vut*; bedananing sayrashi – *vit, vag'-vag', bid-bildiq, vavag'* kabi elementlar sinonimiyasini keltiradi.

Shuningdek, muallif tasviriy so'zlar polisemiyasi haqida ham muhim fikrlar aytgan. Turli xil predmetlar chiqargan ma'lum darajada bir-biriga yaqin, o'xshash tovushlarni tasvirlash jarayonida tasviriy so'zlarda polisemiya hodisasi yuz beradi. Masalan: *vish (vish-vish): vishillagan moddalar, vishillatib pivo quymoq, ilonning vishillab yurishi, qilichni qinidan vish etib chiqarmoq, raketalarning vish-vish ovozi* kabi. Yoki *viz-viz*: o'qning uchgan ovozi, arining uchishi, qishdagi qattiq shamol ovozigacha nisbatan; *gup-gup*: yurakning qattiq urishi, issiq yolqinning yuzga urilishi, qorning qattiq yog'ish jarayoni; *vijir-vijir*: qushlar to'dasining sayrashi, quyosh selida poyonsiz qirlarning tasviri, go'shtning olovda kuydirilgan holatini ifodalashda tasviriy so'zlar ma'nosida kengayish – polisemantizm yuz bergan.

R.Qo'ng'urov so'zlarning ko'chma ma'noda ishlatilishi (ma'nolar konnotatsiyasi) ham stilistik qiymat kasb etishini ko'rsatib o'tgan. Masalan, o'zbek tilida *vag'illamoq* tasviriy fe'l aslida kishining baland ovoz bilan to'xtovsiz

gapirishi tasviri uchun ishlatiladi. Ammo daryoning tezlik bilan, baland ovoz chiqarib oqishiga nisbatan ham shu tasviriy fe'ldan foydalanish mumkin. *Akillamoq* itga nisbatan qo'llaniladi, badiiy va so'zlashuv uslublarida ba'zan kishiga nisbatan ishlatilishi ham mumkin: *Qirq ikki gradus, Gitler akkilar Bizning yengilishga qish bo'ldi sabab* singari.

R.Qo'ng'urov qayd etgan fikrlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, tasviriy so'zlar shunchaki tabiat va jamiyat, insonlar va jonivorlar harakati, holati va ovoz chiqarishiga taqlidni ifodalabgina qolmasdan, nutq jarayonida qo'shimcha ma'no ottenkalarini ham ifodalaydi va shu tarzda bu so'zlarning o'zining ham ma'no doirasi kengayib boradi.

Shuning uchun ham ularning leksik-grammatik va semantik-stilistik jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Shu o'rinda biz yana bir darslikda onomatopoik so'zlarga bildirilgan ayrim fikrlarga to'xtalib o'tishni lozim topdik. Yuqorida keltirilgan asarlarning ko'pchiligida aynan bir xil shaklda takrorlangan onomatopoik so'zlarni (*taq-taq, miyov-miyov* kabi) takroriy onomatopoik so'zlar, biror fonetik jihatdan o'zgarib takrorlangan onomatopoik so'zlarni juft onomatopoik so'zlar (*apil-tapil, g'ivir-shivir* kabi) deb qaralgan.

U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevning «Hozirgi o'zbek adabiy tili» asarida esa «Takroriy onomatopoik so'zlar shu so'zlarning takrorlanishi asosida tuziladi, bunda fonetik o'zgarish bo'lishi, so'z bir necha marta takrorlanishi mumkin: *piqir-piqir, paq-puq, tars-turs* kabi.

Juft onomatopoik so'zlarda esa bir necha onomatopoik so'z juftlashadi: *taka-tum-tak, pluq-qum-prr* kabi»³⁴ deb izohlangan.

Biz ham mazkur ishimizda bugungi tilshunosligimizdagi ana shu qarashlarga tayandik. Garchi so'zlarning ushbu turkumi tilshunosligimizda ham *onomatopoik so'zlar*, ham *tasviriy so'zlar*, ham *taqlidiy so'zlar* deb nomlanib kelayotgan bo'lsa-da, ulardan *onomatopoik so'zlar* atamasini qo'llashni lozim topdik.

³⁴ Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 1992, 394-396-бетлар.

1.4 Onomatopoiik so'zlarni o'rganishning tahlil metodlari

Ingliz tilida sintaksisida gap bo'laklarini o'rganish va ular o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilishda A.I. Smirnitskiy³⁵ sintaktik aloqalarni to'rtta turga bo'lib o'rganilgan:

1) Atributivlik (aloqa turning eng qisqa turi) – hokim va tobe bo'laklarni bir kompleks doirasidagi o'rganuvchi aloqa;

2) Predikativlik (eng mustaqil aloqa turlari) – gapning bosh bo'laklari o'rtasidagi aloqa;

3) Kompletivlik (tuslanuvchi aloqa turi) – gapning ikkinchi darajali bo'laklari o'rtasidagi aloqa;

4) Kopulyativlik – gapning uyushiq bo'laklari o'rtasidagi aloqa;

Aloqalarning oxirgi turi, kopulyativlik aloqasi eng oddiy aloqa turiga kiradi. Gapdagi kopulyativ aloqasi orqali gapning uyushiq bo'laklari boshqariladi, kopulyativ aloqa gapni alohida bo'laklarga ajratadi. A.I. Smirnitskiy tomonidan aniqlangan atributivlik aloqasi hokim va tobe bo'laklar o'rtasidagi aloqa bo'lib, u sintaksis bo'limiga taalluqli hisoblanadi. Atributivlik aloqasini ko'pchilik tilshunoslar o'z ilmiy ishlarida turlicha tadqiq etishgan. Gapda ishtirok etadigan aloqalardan eng asosiy lari predikativlik va kompletivlik aloqalaridir.

N.A. Gaman ham aloqalarni tovush tonlari asosida yoritib, o'z tadqiqotida predikativ aloqasi ustida chuqurroq to'xtalgan.³⁶ Gaman aloqalarini ikki turga bo'ladi:

³⁵ Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка. М. 1957.

³⁶ Гаман Н.А. Семиотик преци. Паузы. КДМ 1977

1) Formal grammatika (grammatik ot va grammatik kesim o'rtasidagi aloqa);

2) Kommunikativ – dinamik (leksik ot va leksik kesim o'rtasidagi aloqa);

O. Dolgova ham aloqalar haqida o'z nazariyasida ish olib borgan. O.V. Dolgova aloqalar o'rtasida ishlab, asosan kompletivlik aloqasiga ko'proq e'tibor qaratgan. Kompletivlik aloqasini yetti turga bo'lib o'rgangan. Dolgovaning fikricha, she'rda, uning oxirgi qatorida kollokatsiya va kolligatsiya birligi esa sintaksis bo'limida o'rganiladi.³⁷ Demak, O.V. Dolgova, M.X. Chxarishvili. N.P. Gaman, O.S. Axmanova, M. Beglieva kabi olimlar o'z tadqiqotlarida aloqalarni tort turga ya'ni, atributivlik, predikativlik, kopulyativlik va kompletivlik aloqalariga ajratishgan. Olimlar bu aloqalarni she'r va prozalar orasida o'rganib chiqib, ularni ma'lum bir pauza yoki diorama asosida bo'lishgan va bir-biridan farqlashgan. Masalan, O.V. Dolgova o'z qarashlarida kompletivlik aloqasini so'z turkumlariga bo'lib, ularni she'rdagi oxirgi qatorlarda kelishini isbotlagan bo'lsa, atributivlik aloqasini esa ikki turga ya'ni prepositivli atributiv va postpozitivli atributga ajratgan. Aloqalar she'r va poeziyalar qaysi qatorda kelishi va qanday so'z turkumiga bog'liqligiga qarab ajratiladi. Bundan tashqari ayrim tilshunoslar aloqalarni uch turga bo'lib o'rganishgan. Masalan, L.S. Barxudarov aloqalarni avval ikki "bog'lanish" va "ergashish" turlarga bo'lib, keyinchalik ularni kngaytirgan va uchinchi aloqa predikativlik aloqasini tadqiq etgan .

A.M. Muxin³⁸ esa, o'z qarashlarida "bog'lanish" va "ergashish" terminlarini sotsiotiv – predikativ aloqalarga bo'linadi, deb hisoblagan.

L. Elmslev ham o'z nazariyasida "bog'lanish" va "ergashish" predmetlarini "sotsiotiv –predikativ" terminiga bog'liq ekanligini, ya'ni aloqalarni uch turga ajratgan:

1) ikki element ham bir-biriga bog'lanib kelmaydiva bog'lanuvchi aloqa (koordinatsiya) deb ataladi.

³⁷ Долгова О.В. Семиотика неплавной речи М. 1978

³⁸ А.М.Мухин "Синтаксемный анализ и проблема уровней языка" Ленинград «Наука» 1980

2) birinchi element ikkinchisiga bog'lanib keladi, ikkinchisi esa, birinchi elementga tobe bo'lmaydi va ergashuvchi aloqa (subordintasiya) deb ataladi.

3) birinchi element ikkinchi elementga bog'liq bo'ladi va ikkinchi element ham birinchisiga bog'lanib keladi. Bu predikativlik aloqasi deb ataladi.

Uchinchi termini L. Elmslev “взаимозависимость” (interdependence) deb ataladi. Bog'lanuvchi aloqa ikki elementdan tuzilgan bo'lib, kam bog'inlardan iborat bo'ladi. Masalan:

Man and woman, red and green, Oxford and Cambridge

Nick had been shocked and upset. (I.M.)

Rigden and his friends had rushed into School House. (I.M.)

Ergashuvchi aloqa o'zining ichki tuzilishida turlicha ifodalanadi: an old brownstone house, fairy well, completely still, to always resent.

I.P. Ivanova³⁹ ham ergashuvchi aloqani otli so'z birikmasida postpozitiv aniqlovchi bilan ifodalanishini isbotlab, uni lokal ma'noda kelishini tadqiq etadi:

The man in the store, across the street, by the bank, under the bridge.

Demak aloqalar uch turga: “o'zaro bog'lanish, bog'lanish, ergashish” terminlari bilan atalib, ular juda abstrakt hisoblanadi, hamda elementlarning sintaktik funksiyasini aniqlab kelmasdan, faqat ularni bir – biridagi aloqasini ko'rsatadi. Gapning komponentlarini o'rganishda ularning gapdagi boshqa bo'laklar bilan sintaktik aloqalarini va ularning yadroviyligi predikatsiya etuvchi yoki predikatsiya etiluvchiligini, tobeligi yoki uyushganligi kabi gapdagi komponentlar pozitsiyalarining o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Biz gaplarni sintaktik va semantik xususiyatlarini aniqlashda ko'proq professor A.M. Muxin yozgan kitoblardan foydalanamiz va u tomonidan qo'llanilgan sintaktik elementar birlik nazariyalari orqali gaplarni tahlil qilamiz. Gapning qurilishida elementar sintaktik birliklarning ikki turi – gapning komponentli strukturasi, ikkinchisi esa gapning sintaksemali strukturasi tashkil etadi. U yoki boshqa birliklarning xarakterli tomoni ularning sintaktik

³⁹ Иванова И. История английского языка

bo'linmasliklari hisoblanadi, shuning natijasida u elementar sintaktik birlik deb nomlanadi. Tilshunos olim A.M. Muxin gapda ishtirok etgan mustaqil leksik ma'noga ega bo'lgan har bir so'zga leksema deb ta'rif berib, ularga alohida komponent sifatida qaraydi. A.M. Muxin nazariyasiga tayanib shuni aytsih mumkinki gapdagi komponentlar ma'lum bir sintaktik bog'lanish asosida bir-biri bilan birikadi.

Professor A.M. Muxin⁴⁰ nazariyasiga ko'ra oltita sintaktik-semantik bog'lanish mavjud bo'lib, ular:

1. Yadroviy predikativ bog'lanish (Nuclear Predicative Relation) – NPR
2. Noyadroviy predikativ bog'lanish (Non-nuclear Predicative Relation) – NPR
3. Subordinativ bog'lanish (Subordinative Relation) – SR
4. Koordinativ bog'lanish (Coordinative Relation) – CR
5. Appozitiv bog'lanish (Appositive relation) – AR
6. Introduktiv bog'lanish (Introductive Relation) – IR⁴¹

Predikativ bog'lanish ikki turga bo'linadi:

1. Yadroviy predikativ bog'lanish; 2. Noyadroviy predikativ bog'lanish;

Yadroviy predikativ bog'lanish – gapning asosini tashkil etadi va o'z-o'zidan gap (jumla) hosil qiladi. Ular shunday ikkita gap komponentlari orasida mavjud bo'lib (ega va kesim), ular o'zaro birlikda bir-birlari bilan bog'liqlik hosil qiladilar ya'ni ikki tomonlaman yo'nalish hosil qiladi. \longleftrightarrow

Sintaktik va semantik bog'lanishlarni qaysi gapda qanday komponent bilan o'zaro birikishini bilish uchun, tilga chuqur kirib boramiz. Ularni manbalardan olingan misollar orqali isbotlaymiz. Endi esa misollarni yuqorida aytilgan yadroviy predikativ bog'lanishida gap komponentlari sifatida tahlil qilib ko'ramiz.

Sintaksemlar analizida uch yo'nalish bo'yicha ish olib boriladi:

- 1) Ifoda usuliga ko'ra (Badanina, Kravsov, Rustamova va boshqalar);

⁴⁰ A.M.Мухин “Синтаксемный анализ и проблема уровней языка” Ленинград «Наука» 1980

⁴¹ A.M.Мухин “Синтаксемный анализ и проблема уровней языка” Ленинград «Наука» 1980 ст 237

- 2) Elementar birikmalarning sintaktik mazmun bo'yicha (Doroshenkov, Djelali, Petram, Malenkov, Belinskyaya);
- 3) Sintaktik pozitsiyaga ko'ra (Voskresenskaya, Severyanova).

Eksperimentlar deganda tilning sintaksis bo'limida, balki boshqa bo'limlarida ham keyingi paytlarda keng tarqalgan transformatsiyalar tushuniladi. Gapning komponent strukturasi o'rganish eksperiment metodlari gapning sintaksem strukturasi o'rganish eksperiment metodlaridan farq qiladi. Gapning komponent va sintaksem bog'lanishlarini aniqlashda, odatda, gapda komponentlarni tushirib qoldirish eksperimentidan foydalaniladi. Sintaksemalarni o'rganishda boshqa xil eksperiment metodidan foydalaniladi, ya'ni biror bir paradigmatic qatorni tashkil etuvchi sintaksemani aniqlashda unga yaqin ma'noli boshqa sintaksema bilan almashtirilgan eksperiment metodi qo'llaniladi. Ba'zi bir hollarda biz sintaktik semantika aniqlashda "so'z qo'shish", "verbalizatsiya" (fe'lga aylantirish) metodidan, passivizatsiya (passivga aylantirish) va savol qo'yish eksperiment metodlaridan foydalanamiz. Har bir konkret hodisa uchun ishonchli transformatsiya usullarini topish muhim ahamiyatga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, transformatsiya eksperiment sifatida o'zida transformatsiya qilinayotgan gapdagi fikrni man qilmaydi aksincha, biz analiz qilayotgan sintaksemaning mazmunida u yoki bu sintaktik-semantik belgining bor yo'qligini isbotlashda vosita bo'lib xizmat qiladi. Transformatsiya qilishda ikki shartga amal qilinadi.


Birinchi shartga ko'ra, gapning grammatik qonun-qoidalari jihatdan gap to'g'ri bo'lishi kerak. Bu transformatsiyalarni zarur hollarda til egalariga tasdiqlatamiz.

Ikkinchi shart esa, gapning komponent tahlilida elementdan boshqa elementlarning sintaktik bog'lanishi o'zgarmay qolishi kerak.

Modellashtirish metodida esa modeler belgilarini tuzilishidan tashkil topadi, avvalo gapning yuniksiyon modeli (lotincha junktio "birlashtirmoq", "bog'lanish")ni yaratish eksperiment natijaga asoslanadi. Bundan tashqari

o'rganilayotgan gap komponentlarining sintaktik belgilari yana bir modelda komponent modelida ko'rsatiladi.

Hozirgi zamon ingliz tili gaplarida onomatopoik so'zlarni predikativ funksiyasida ishlatilishini uchratamiz. Masalan:




Yuqoridagi gapda ko'rinib turganidek yuniksion modelda komponentlar soni 2 ta bo'lib, gapning egasi – the audience, kesimi – were howling, to be bog'lovchi fe'l, howling – onomatopoik so'z.

Biz yuqorida gapning yuniksion va komponent modellari haqida gap yuritdik “Model” atamasining ma'nosi modellashtirish, ilmiy tadqiqot metodi tushunchasi bilan bog'liq.

Shu bilan bog'liq holda biz quyidagi bog'lanish modelini ko'ramiz ya'ni yuniksion modelni (lotin tilidagi “junctio” so'zidan olingan bo'lib, “bog'lanish” degan ma'noni bildiradi) gap va gapning komponentli modeli sifatida, aksariyat gaplarda ikkita asosiy bog'lanish mavjuddir. Ulardan biri yadroviy predikativ va boshqasi esa to be yoki subordinativdir.

Yuniksion model asosida esa komponent model yaratilgan. Sintakmatik bog'lanishlar ba'zida gapning har birida ega va yadroviy predikativ komponenti (NP1) va kesim ya'ni gapning yadroviy kesimli komponenti (NP2) hamda yana tobe komponentlariga (D) ajraladi. Masalan:



I bobga xulosa

Ushbu bobda hozirgi zamon ingliz tilida onomatopoik soʻzlarni oʻrganishning nazariy asoslari haqida soʻz yuritildi. Onomatopoik soʻzlar bu oʻzlarining maʼnolaridan kelib chiqib namoyon boʻladigan soʻzlardir. Onomatopoik soʻzlar tushunchasini misollarsiz tushinishda qiyinchiliklar tugʻiladi. Misollar onomatopoik soʻzlar tushunchasini tushunishni osonlashtiradi.

Birinchi boʻlimda onomatopoik soʻzlarni olimlar tomonidan oʻrganilganligi haqida soʻz yuritilgan boʻlib, turli tillarda onomatopoik soʻzlarni talqin qilinganligi koʻrsatib oʻtilgan.

Ikkinchi boʻlimda onomatopoik soʻzlarni tahlil qilishning oʻzga xos jihatlari haqida soʻz yuritilgan boʻlib, unda onomatopoik soʻzlar haqida umumiy maʼlumot, ularning tilning paydo boʻlishidagi ahamiyati haqida soʻz yuritilgan.

Uchinchi boʻlimda onomatopoik soʻzlarning soʻz turkumlari tizimida tutgan oʻrni haqida toʻxtalib ularning asosan yordamchi soʻz turkumlari tarkibiga kirishi aniqlangan.

Toʻrtinchi boʻlimda esa onomatopoik soʻzlarni oʻrganishning tahlil metodlari haqida soʻz yuritilgan. Unda komponent va sintaksem tahlil nazariyasining ahamiyati koʻrsatib oʻtilgan. Sintaksem analizda uch yoʻnalish boʻyicha ish olib boriladi:

- 4) Ifoda usuliga koʻra (Badanina, Kravsov, Rustamova va boshqalar);
- 5) Elementar birikmalarning sintaktik mazmun boʻyicha (Doroshenkov, Djelali, Petram, Malenkov, Belinskyaya);
- 6) Sintaktik pozitsiyaga koʻra (Voskresenskaya, Severyanova).

Gapning komponent va sintaksem bogʻlanishlarini aniqlashda, odatda, gapda komponentlarni tushirib qoldirish eksperimentidan foydalaniladi. Sintaksemalarni oʻrganishda boshqa xil eksperiment metodidan foydalaniladi, yaʼni biror bir paradigmatic qatorni tashkil etuvchi sintaksemani aniqlashda unga yaqin maʼnoli boshqa sintaksema bilan almashtirilgan eksperiment metodi qoʻllaniladi.